

YANGI RAQAMLI TO'LOV MAHSULOTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Toshniyozov Sherali Kamoliddin o'g'li

Toshkent Moliya instituti stajor o'qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning mohiyati va asosiy xususiyatlari, raqamli to'lov mahsulotlarini joriy etish istiqbollari va ularning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy to'lov tizimlarining an'anaviy to'lov tizimlariga nisbatan afzalliklari tadqiq etilgan.*

Kalit soʻzlar: *raqamli texnologiya, to'lov tizimi, plastik karta, foydalanish, mahsulotlar, rivojlantirish.*

So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohaları va sohalariga kirib borishi bilan an'anaviy yondashuvlar va ish uslublari o'zgaradi.

Yangi texnologiyalar yaxshi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba'zi jihatlari o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni – aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek, ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat. Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlarning o'sishi bilan bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish kerak. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o'zgaruvchan voqelikni aks ettirish uchun o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi.

To'lov tizimi har qanday tizim joylashish uchun ishlatilgan moliyaviy operatsiyalar pul qiymatini o'tkazish orqali. Bunga uning almashinuvini ta'minlaydigan institutlar, vositalar, odamlar, qoidalar, protseduralar, standartlar va texnologiyalar kiradi.^{[1][2]} To'lov tizimining keng tarqalgan turi bank hisobvaraqlarini bog'laydigan va bank depozitlari yordamida pul almashinuvini ta'minlaydigan operatsion tarmoq deb ataladi.^[3] Ba'zi to'lov tizimlari, asosan, to'lovning boshqa jihati bo'lgan kredit mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi.

To'lov tizimlari tender savdolari o'rniga ishlatiladi naqd pul ichki va xalqaro operatsiyalarda. Bu banklar va boshqa moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan asosiy xizmatdan iborat. An'anaviy to'lov tizimlariga quyidagilar kiradi kelishiladigan vositalar kabi qoramalar (masalan, cheklar) va shunga o'xshash hujjatli kreditlar akkreditivlar. Kompyuterlar va elektron aloqalar paydo bo'lishi bilan ko'plab muqobil elektron to'lov tizimlari paydo bo'ldi. Atama elektron

to'lov elektron usullardan foydalangan holda va bank xodimlarining bevosita aralashuvidan voz kechgan holda bir bank hisobvarag'idan boshqasiga o'tkazilgan to'lovni anglatadi.^[4] Tor tarzda belgilangan elektron to'lovga quyidagilar kiradi elektron tijorat - orqali taklif qilingan tovarlarni yoki xizmatlarni sotib olish va sotish uchun to'lov Internet, yoki umuman har qanday turiga elektron pul o'tkazmalari.

Zamonaviy to'lov tizimlari an'anaviy to'lov tizimlariga nisbatan naqd almashtirish vositalaridan foydalanadi. Bunga quyidagilar kiradi debet kartalari, kredit kartalar, elektron pul o'tkazmalari, to'g'ridan-to'g'ri kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri debetlar, Internet-bank va elektron tijorat to'lov tizimlari.

To'lov tizimlari jismoniy yoki elektron bo'lishi mumkin va ularning har biri o'z protseduralari va protokollariga ega

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ilm-ma'rifatga alohida urg'u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yilishi bugungi kun zaruratidir. Zero, eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. \

Raqamli iqtisodiyot o'zi nima? u iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asnosida amalga oshirishning yaxlit bir tizimi sifatida qaraladi. Bunda raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish demakdir.

So'ngi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolandi.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat

aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yana-da rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga karatilgan "Raqamli ishonch" jamg'armasi tashkil etildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish uchun, shu jumladan bir vaqtning o'zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazish va tezkor jo'natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi "project.gov.uz" joriy etildi.

Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda zamonaviy dasturlash texnologiyalarini o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlash maqsadida "Bir million dasturchi" loyihasi ishlab chiqilib, loyiha doirasidagi mashg'ulotlarni tashkil etish uchun uzbekcoders.uz o'quv portali ishga tushirildi.

2020-yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko'tarilib, Prezident Farmoni bilan mamlakatning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo telekommunikatsiya va elektron infratuzilmani takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

Albatta, aholini internet tarmog'idan foydalanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa raqamli iqtisodiyot, shu jumladan elektron hukumat tizimi ham shuncha samarali faoliyat yuritadi. Yurtimiz bo'yicha internet foydalanuvchilari soni jami aholiga nisbatan 2018-yilda 46 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 60 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Reallik bilan bog'laganda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YAIM hajmi ham, YAIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda mazkur masalaga e'tibor qaratish

yagona maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa, aholining yashash sharoitini yaxshilash, aholini real daromadini oshirish, qolaversa tadbirkorlikni va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdir.

“Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir ” - Prezidentimizning mazkur so'zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta'minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Insoniyat har kuni ko'plab axborotlarni qabul qiladi. Bunga mobil telefon, internet, smartfonlarning doimiy ravishda o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining o'sishi katta yordam beradi

Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, huqumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Keling, raqamli bank o'zi nima va bank jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi haqida to'xtalib o'tsak.

Prezidentning “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi.

Darhaqiqat, “raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o'z mijozlariga yana-da qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” va “TBS bank”lar ham o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozi 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Albatta savol tug'iladi, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o'rtasida qanday farq mavjud?

Raqamli banklar:

- bank filiallari tarmog'ining kengaytirilmasligi;
- bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o'rnatilganligi;
- sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan mobil ilova;

- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya'ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi);

- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;

Xususiy yoki davlat banklari:

- Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e'tiborning sustligi;

- Bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa o'rnatish holatining pastligi;

- Mobil ilovalari nomiga chiqarilib, foydalanuvchi bir marotaba kiradi va qayta kirmaslikka ahd qiladi (mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o'tkazish yoki kommunal to'lovlar to'lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo'lim, ko'p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi);

- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko'p holatlarda faqat tanish-bilishchilik katta rol o'ynaydi (agar tanish bo'lmasa, o'sha mijoz 3 oy va undan ko'p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi).

- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo'limlari mutaxassislari bilan so'zlashishiga to'g'ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to'lanadigan summa hisobga olinmaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3832 qarorining qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy infratuzilmani qo'llashda muhim dasturi amal hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi, shu jumladan, "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq loyihalarni davlat-xususiy sheriklik shartlarida amalga oshirish uchun investorlarning mablag'larini jalb etish va birlashtirish asosiy vazifalaridan biri hisoblangan davlat muassasasi shaklidagi "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasining "Universal Mobile Systems" mas'uliyati cheklangan jamiyati ustav kapitalidagi davlat ulushini 100 foiz miqdorda "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga beg'araz asosda topshirilgan.

Shuningdek, jamg'arma tomonidan ushbu qarorga muvofiq olingan mol-mulk yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortish obyektini hisoblanmaydi va "Universal Mobile Systems" MChJ ustav kapitalidagi ushbu qarorga muvofiq

topshirilayotgan ulush yuridik shaxslarning foyda solig'iga va qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.



Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniqki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat bozori "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib beriladi. Ya'ni bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichikmi, ularning barchasi teng huquqlidir. Shunday ekan raqamli iqtisodiyot rivojlanishida davlat hamma uchun teng shart-sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi zarur.

Dunyo mamlakatlari singari O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanib bormoqda. Kundalik hayotimizga axborot-texnologiyalarini tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot bir necha barobar sekin rivojlanmoqda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud, lekin rivojlanish darajasi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha past.

Buning asosiy sababi sifatida, raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatishimiz mumkin:

- internet tezligining pastligi va sifatsizligi;
- ko'plab sohalardagi monopoliya;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining pastligi;
- qonunchilikning shaffof emasligi;
- axborot-texnologiyalari bo'yicha mutaxassisning yetishmasligi;
- ilm-fan va ayniqsa aniq fanlar rivojlanishining sustligi.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya'ni, raqamli banklarning istiqbollaridan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga

erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag'larini tejashiga imkon yaratadi.